


## O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 25,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,6 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (23,2 %), sanoat tarmog'ida (22,0 %), qurilishda tarmog'ida (12,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (12,4 %), yashash va ovqatlanishda (7,7 %), tashish va saqlashda (3,9 %) tashkil etilgan.

### 2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Toshkent shahrida 22,5 birlikda, Sirdaryo viloyatida 17,9 birlikda, Jizzax viloyatida 16,4 birlikda, Toshkent viloyatida 15,0 birlikda, Navoiy viloyatida 13,3 birlikda va Qashqadaryo viloyatida 13,2 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 10-13 birlik oralig'ida Buxoro, Andijon, Xorazm, Farg'ona, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Samarqand viloyatlarida aniqlandi. Namangan viloyatida 9,9 birlikda va Surxandaryo viloyatida 9,0 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**




2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,8 birlikda bo'lib, 2017 yilda 12,4 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 12,8 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 49,2 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 54,3%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi  
dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**



## 2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi



Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi eng ko'p Jizzax (73,5 %), Surxondaryo (72,9 %), Buxoro (71,1 %) va Namangan (69,6 %) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda va 31,2 % ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo'yicha ulushi  
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>31,1</b>	<b>67,9</b>	<b>55,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13,7	84,2	59,3
viloyatlar:			
Andijon	20,9	97,5	72,2
Buxoro	40,5	82,1	74,2
Jizzax	60,8	98,3	70,0
Qashqadaryo	20,2	83,9	71,0
Navoiy	12,9	62,1	62,7
Namangan	63,7	94,2	70,9
Samarqand	52,4	98,8	75,0
Surxondaryo	41,3	81,8	72,9
Sirdaryo	42,8	95,0	64,2
Toshkent	17,8	78,4	74,5
Farg'ona	32,1	93,9	74,2
Xorazm	31,9	89,6	69,1
Toshkent sh.	68,0	72,7	49,9

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Toshkent shahri (68,0 %), Namangan (63,7 %), va Jizzax (60,8 %) viloyatlari tashkil etadi.

Qurilishda Samarqand (98,8 %), Jizzax (98,3 %), Andijon (97,5 %) va Sirdaryo (95,0 %) viloyatlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Samarqand (75,0 %), Toshkent (74,5 %), Farg'ona va Buxoro (74,2 %), Surxondaryo (72,9 %), Andijon (72,2 %) viloyatlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 29234,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 31,1 %) yoki 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 106,6 %ni tashkil qildi;

– 16360,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 39,7 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 123,6 %ni tashkil qildi;

– 14659,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 67,9 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 108,6 % ni tashkil qildi;

– 36755,4 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 55,2 %), 2017 yilning yanvar– iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 97,8 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,0 % yoki 55253,6 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 2,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 2723,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 34,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 1022,8 mln. AQSh dollariga yoki 60,1 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,3 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 79,7 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,6 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,1 % ) ko`payishi ta`minlandi;

### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Toshkent shahri (11026,1 mlrd.so'm), Toshkent (2736,5 mlrd.so'm) va Samarqand (2626,0 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida (576,2 mlrd.so'm) va Surxandaryo viloyatida (528,8 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (10367,3 mlrd.so'm), Toshkent (5780,2 mlrd.so'm), Samarqand (5016,9 mlrd.so'm), Farg'ona (4991,1 mlrd.so'm) va Andijon (4501,0 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.





**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Toshkent shahri (10633,8 mlrd.so'm), Toshkent (3709,8 mlrd.so'm) va Samarqand (3355,7 mlrd.so'm), Farg'ona (3067,8 mlrd.so'm) va Andijon (2634,2 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 740 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 23,6 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 56,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 26,3 % va 58,3 %, xizmatlar sohasida – 26,9 % va 53,9 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 23,1 % va 59,3 %, sanoatda – 29,7 % va 50,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 20,3 %, qurilishda – 20,2 %, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 17,6 %, xizmatlarda – 19,2 % va savdoda – 15,4 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 66,3 % sanoat korxonalari, 68,6 % – savdo, 62,1 % – xizmatlar, 79,1 % – qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi va 67,4 % – qurilish tarmogʻida kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi oʻzgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun koʻrilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.